

«Chipta ovi»
rag'batlantiruvchi reklama aksiyasini o'tkazish
QOIDALARI

Atamalar va ta'riflar

Aksiya — iste'molchilar e'tiborini Tashkilotchi va u tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarga jalb etishga qaratilgan «Chipta ovi» rag'batlantiruvchi reklama tadbiri. Aksiya lotereya, qimor o'yini yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa tadbir hisoblanmaydi.

Tashkilotchi — Centrum Air brendi ostida faoliyat yurituvchi «MY FREIGHTER» mas'uliyati cheklangan jamiyati; davlat ro'yxatidan o'tgan sana — 03.01.2020; STIR — 306985993; yuridik manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Lashkarbegi MFY, Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 262-uy; Bosh direktor — Abdurahmanov Abdulaziz Abduqodirovich. Aksiya doirasidagi aviatashuvlar Centrum Air brendi ostida faoliyat yurituvchi «MY FREIGHTER» MChJ tomonidan amalga oshiriladi.

Mobil ilova — iOS va Android platformalari uchun mo'ljallangan Centrum Air rasmiy mobil ilovasi bo'lib, Aksiya doirasida Aksiyali aviachiptalarni xarid qilishning yagona kanali hisoblanadi.

Aksiyali aviachipta — Ishtirokchi tomonidan Aksiya o'tkaziladigan muddat davomida Mobil ilova orqali «1 USD fare1» («Optimal») maxsus tarifi bo'yicha xarid qilinadigan aviachipta.

Ishtirokchi — Aksiya o'tkaziladigan muddat davomida Mobil ilova orqali Aksiyali aviachipta xarid qiluvchi, 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lgan va muomala layoqatiga ega jismoniy shaxs.

«1 USD fare1» («Optimal») tarifi — Tashkilotchining mazkur Qoidalarining 3-bo'limida nazarda tutilgan maxsus tarifi bo'lib, har bir parvoz segmenti uchun tashish qiymati 1 (bir) AQSH dollarini tashkil etishini nazarda tutadi.

1. Aksiya haqida umumiy ma'lumot

1.1. «Chipta ovi» aksiyasi Tashkilotchi va u tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarga iste'molchilar e'tiborini jalb etishga qaratilgan rag'batlantiruvchi reklama tadbiri bo'lib, Tashkilotchining xizmatlarini ilgari surish maqsadida o'tkaziladi. Aksiya lotereya hisoblanmaydi.

1.2. Aksiyaning mohiyati «1 USD fare1» («Optimal») maxsus tarifi bo'yicha cheklangan miqdordagi aviachiptalarni sotishdan iborat. Har bir parvoz segmenti uchun tarif 1 (bir) AQSH dollarini tashkil etadi. Tarif shartlari mazkur Qoidalarining 3-bo'limida keltirilgan.

1.3. Aksiya o'tkaziladigan muddat: 2026-yil 5-iyul soat 00:00 dan 2026-yil 5-iyul soat 23:59 gacha (Toshkent vaqti, UTC+5).

1.4. Aksiyaviy aviachiptalar soni cheklangan bo'lib, 100 (yuz) donani tashkil etadi. Aksiyali aviachiptalar rasmiylashtirish (xarid qilish) navbatiga ko'ra, umumiy soni tugaguniga qadar yoki Aksiya o'tkazish muddati yakunlangunga qadar, qaysi holat avvalroq yuz bersa, o'sha vaqtgacha taqdim etiladi.

1.5. Aksiyali aviachiptalar faqat Tashkilotchining Mobil ilovasida (iOS/Android) sotiladi. Boshqa savdo kanallarida (veb-sayt, aviakassalar, agentlik tarmog'i va kontakt-markaz orqali) Aksiya amal qilmaydi.

1.6. Aksiya Tashkent shahri va Tashkilotchining marshrutlar tarmog'idagi boshqa aeroportlardan amalga oshiriladigan parvozlariga tatbiq etiladi.

1.7. Aksiyaviy aviachiptalar bo'yicha parvoz sanasi 2026-yil 30-noyabrdan kech bo'lmasligi (shu kunni ham o'z ichiga olgan holda) lozim.

1.8. Aeroport yig'implari, taksalar va boshqa majburiy to'lovlar Aksiya aviachipta narxiga kiritilgan. Qo'shimcha xizmatlar uchun to'lov Ishtirokchi tomonidan tarif shartlariga muvofiq mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

1.9. Aksiya Qoidalari, shartlari va uning o'tkazilish jarayoni haqidagi ma'lumotlar www.centrum-air.com saytida, shuningdek Tashkilotchining rasmiy sahifalari orqali e'lon qilinadi: <https://t.me/centrumair>, <https://www.instagram.com/centrumair/?hl=ru>.

2. Aksiya ishtirok etish shartlari

2.1. Aksiya muomala layoqatiga ega va 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lgan jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin.

2.2. Aksiya ishtirok etish uchun Centrum Air Mobil ilovasini o'rnatish, undan ro'yxatdan o'tish (avtorizatsiyadan o'tish) hamda Aksiya o'tkaziladigan muddat davomida «1 USD fare1» («Optimal») tarifi bo'yicha Aksiya aviachiptani rasmiylashtirib, uning haqini to'lash lozim.

2.3. Aksiya aviachiptani sotib olish Ishtirokchining mazkur Qoidalarini to'liq va so'zsiz qabul qilganini anglatadi.

2.4. Tashkilotchining, shuningdek Centrum Holding tarkibiga kiruvchi kompaniyalarning xodimlari, ular bilan affillangan shaxslar hamda ularning yaqin qarindoshlari (turmush o'rtoqlari, ota-onalari, farzandlari, aka-ukalari va opa-singillari) Aksiya ishtirok eta olmaydi.

2.5. Ishtirokchi Aksiya ishtirok etish uchun zarur huquq va qonuniy asoslarga ega ekanini hamda uning ishtiroki uchinchi shaxslarning huquqlarini buzmasligini kafolatlaydi.

2.6. Bir Ishtirokchi tomonidan xarid qilinadigan Aksiya aviachiptalar soni cheklanmaydi.

3. «1 USD fare1» («Optimal») tarifi shartlari

3.1. Aksiya aviachiptalar Tashkilotchining «1 USD fare1» («Optimal») maxsus tarifi shartlari asosida sotiladi.

Tarif ko'rsatkichlari	Shartlar
Tarif nomi	1 USD fare1 / «Optimal»
Qo'l yuki (1 ta joy, ko'pi bilan)	8 kg
Bagaj tashish me'yori (1 ta joydan ko'p emas)	Voyaga yetgan yo'lovchi (18 yoshdan katta) — 23 kg.
Tarifning qo'llanilishi	Tarif bir tomonga (One Way, OW)
Bronni o'zgartirish (Rebooking)	Ko'zda tutilmagan (N/A)
Chiptani qaytarish (Cancellation)	Ko'zda tutilmagan (N/A)
Joy tanlash (1-qator va favqulodda chiqish joylari yonidagi o'rindiqlardan tashqari)	Ko'zda tutilmagan (N/A)
Bolalar uchun chegirmalar	Kattalar tarifi bo'yicha, chegirmalar

	nazarda tutilmagan.
Ism-sharifni o'zgartirish (Name Change)	12 USD

3.2. Tarif bo'yicha tashish qiymati har bir parvoz segmenti uchun 1 (bir) AQSH dollarini tashkil etadi. Tarif bir tomonga (One Way, OW) qo'llaniladi; «borish va qaytish» parvozi rasmiylashtirilganda ikkita parvoz segmenti rasmiylashtiriladi va narx har bir segment uchun 1 (bir) AQSH dollari hisobidan belgilanadi.

3.3. Mazkur bo'limda tartibga solinmagan barcha masalalarda Tashkilotchining tarifni qo'llash bo'yicha umumiy qoidalar hamda yo'lovchini havo transportida tashish shartnomasi shartlari qo'llaniladi.

4. Shaxsga doir ma'lumotlar

4.1. Aksiyali aviachiptani rasmiylashtirish va tashishni amalga oshirish maqsadida Tashkilotchi Ishtirokchining quyidagi shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov beradi: familiyasi, ismi, otasining ismi; aloqa ma'lumotlari (telefon raqami va elektron pochta manzili); tug'ilgan sanasi; jinsi; shaxsni tasdiqlovchi hujjatning seriyasi (mavjud bo'lsa), raqami va amal qilish muddati tugash sanasi (mavjud bo'lsa); parvoz yo'nalishi, uchish sanasi va vaqti, reys raqami.

4.2. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish Tashkilotchi o'z majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo'lgan muddat davomida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonunida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

4.3. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish, jumladan, aviachiptalarni rasmiylashtirish va tashishni amalga oshirish maqsadida ularni davlat organlariga va (yoki) tijorat tashkilotlariga o'tkazish ushbu Qoidalar, Tashkilotchining tashish qoidalar va amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Aksiyali aviachiptani xarid qilish orqali Ishtirokchi Tashkilotchining Centrum Air [Maxfiylik siyosati va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish qoidalar](#) bilan tanishib chiqqanini tasdiqlaydi.

5. Boshqa shartlar

5.1. Tashkilotchi va u vakolat bergan shaxslar Ishtirokchi ulangan Internet-provayder, mobil qurilmalar, dasturiy ta'minot, telekommunikatsiya tarmoqlari va tizimlari faoliyatidagi texnik nosozliklar, shuningdek, texnik muammolar, inson omili, internet tarmog'idagi ortiqcha yuklama yoki ushbu omillarning birgalikdagi ta'siri oqibatida ma'lumotlar olinmaganligi uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

5.2. Skript, makros yoki boshqa har qanday avtomatlashtirilgan vositalar yordamida yaratilgan ma'lumotlar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Aksiyaviy aviachiptalarni avtomatlashtirilgan vositalardan foydalangan holda rasmiylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

5.3. Agar Ishtirokchi ishtirok etish mezonlariga javob bermasligi, uchinchi tomon servislaridan yoki soxta akkauntlardan foydalanishi yoxud mazkur Qoidalarni buzishi aniqlansa, Tashkilotchi uni istalgan vaqtda Aksiyada ishtirok etishdan chetlatishga haqli.

5.4. Tashkilotchi yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari, shuningdek, Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa obyektiv sabablar, jumladan, Ishtirokchi tomonidan viza, migratsiya,

sanitariya va boshqa majburiy talablarning buzilishi yoki zarur hujjatlarning mavjud emasligi oqibatida Aksiyali aviachiptadan foydalana olmaslik uchun javobgar bo'lmaydi.

5.5. Tashkilotchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lmagan holda mazkur Qoidalariga o'zgartirishlar kiritishga haqli. O'zgartirishlar haqidagi ma'lumot Mobil ilovada va www.centrum-air.com saytidagi Aksiya sahifasida joylashtiriladi. Agar boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, o'zgartirishlar ular joylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

5.6. Quyidagi shaxslar Aksiyada ishtirok eta olmaydi: Tashkilotchi hamda Centrum Holding kompaniyalar guruhiga kiruvchi boshqa yuridik shaxslarning xodimlari; mazkur tashkilotlar bilan affillangan shaxslar; Aksiyani tayyorlash va o'tkazishga jalb qilingan kontragentlar xodimlari; shuningdek, yuqorida sanab o'tilgan barcha shaxslarning yaqin qarindoshlari (turmush o'rtoqlari, ota-onalari, farzandlari, farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar, tug'ishgan aka-uka va opa-singillari). Mazkur shaxslarning Aksiyada ishtirok etgani aniqlangan taqdirda, Tashkilotchi ularning Aksiyadagi ishtirokini bekor qilishga haqli.

5.7. Mazkur Qoidalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi. Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq barcha e'tiroz va nizolar Tashkilotchiga yozma shaklda yuboriladi hamda muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar Tashkilotchi ro'yxatdan o'tgan joy bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

5.8. Mazkur Qoidalarda tartibga solinmagan barcha masalalarda Tashkilotchi va Ishtirokchilar amaldagi qonunchilikka amal qiladilar.